

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>U.X.Eshmuradov</b>	
Til o'rganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari: til o'rganuvchilar tajribasi .....	325
<b>M.E.Tursunova</b>	
Anglitizmlarning media mayondagi faoliyat xususiyatlari .....	329
<b>H.A.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....	332
<b>A.M.Mamadjanov</b>	
Ta'lim muassasalarida fuqarolik muhofazasi darslarini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar .....	336
<b>M.I.Ehsanova, N.B.Salimova, M.A.Yulchiyeva</b>	
So'z o'zlashtirish hodisasi talqini va uning til lug'at tarkibi boyishidagi o'rni .....	339
<b>N.Y.Ortikova</b>	
Fonetik hodisalar va tovush o'zgarishlarining badiiy-estetik vazifalari (Anvar Obidjon she'riyati misolida) .....	342
<b>A.M.Yuldashev</b>	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi .....	349
<b>N.A.Rasulova</b>	
Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash .....	357
<b>D.J.Jurayeva</b>	
Zahiriddin Muhammad Boburning muhabbat falsafasining o'ziga xos xususiyatlari va estetik tahlili .....	362
<b>K.Q.Axmedova</b>	
Ijtimoiy tarmoqdagi muloqotning lingvostilistik xususiyatlari. ....	366
<b>R.Y.Xolikov, O.A.Qo'chqarov</b>	
Shaharlar tuproqlarining texnogen ifloslanishi va uning ekologik oqibatlari. ....	370
<b>F.M.Tillaxo'jayeva</b>	
Vodiyning iqtisodiy rivojlanishida nemis tadbirkorlarning hissasi .....	374
<b>A.Goipov</b>	
Burchakni teng uchga bo'lishning bir usuli haqida (burchak triseksiyasi haqidagi masala) .....	378
<b>A.A.Boltayev</b>	
Ibn Arabiy va ta'vil ilmi .....	380
<b>L.Alimardonov</b>	
Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy reklamaning rolini tadqiq etishning nazariy asoslari.....	385
<b>Z.Y.Xamraqulov</b>	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	388
<b>S.Parmanov</b>	
Siyosiy madaniyatning shakllanishi bilan bog'liq tahlillar .....	393
<b>R.Urazova</b>	
Avesto yashlarida mitranning sifatleri .....	397
<b>Sh.X.Xonqulov</b>	
Hamza Hakimzoda Niyoziy o'limining O'zbekiston SSRdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarga ta'siri.....	404
<b>Sh.B.Murtozayev</b>	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	411
<b>U.E.Qurbonov</b>	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari .....	415
<b>I.Ch.Shermanov</b>	
Bioetika: fan-texnologiya va ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyati ( <i>ijtimoiy-falsafiy tahlil</i> ) .....	419
<b>U.A.Azimov</b>	
Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili.....	424
<b>A.A.Abdumalikov</b>	
Jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli .....	428
<b>X.N.Xolmirzaev</b>	
Jamiyat taraqqiyotida inson salohiyatini namoyon bo'lish omillari.....	434

## AVESTO YASHTLARIDA MITRANING SIFATLARI

## АТРИБУТЫ МИТРЫ В ЭПОХУ АВЕСТА

## ATTRIBUTES OF MITRA IN THE AGE OF AVESTO

Ra'no Urazova<sup>1</sup>Ra'no Urazova<sup>1</sup>

– O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO kafedrasida dotsenti v.b., falsafa doktori (PhD)

## Annotasiya

Mazkur maqola zardushtiylik ilohiyot tizimining samoviy mavhum timsollardan biri Mitra va uning funksiyalariga bag'ishlangan. Mitraning sifatlari - qudratli hukmdor, go'zal notiq, qomati tik, bo'yador, osmoniy bilimdon, jangovor qurollar egasi, savobdordor va har ishga qodirligi badiiy tasvirlar bilan ochib berilgan.

Maqolada Zardusht yagona parvardigor mavjudligini e'lon qilib, odamlar hamma narsaga qodir ilohiy mavhum zotni tasavvur qilishlari qiyin bo'lgan davrda Ahura Mazda Mitraga imon va e'tiqod qo'riqchisi sifatida dindan qaytganlarni jazolash vazifasini yuklaganligi ilmiy tahlil qilingan. Mitra imonli mamlakatlarni ulkan zafarlarga yo'llaydi. Ahdida turmas yurtlarni yuzini baxtdan teskari qiladi, erishgan zafarlarini to'zdiradi. Mitra yuz ming tuman ko'zli zotdir. Mitraning ellik zarbda yuz yovni, yuz zarb bilan ming yovni, ming zarbida esa ming tuman yovni, ming tuman zarbda son-sanoqsiz yovni yo'q qilishi kabi sifatlari, barcha yolg'onlarning sababchisi devlar boshiga qiron solishi, bitim xoinlarining boshlarini yanchib, Haq yo'lidagi yurtni ulug'likka chorchash kabi funksiyalari VII asr oxiri - VIII asr boshiga oid so'g'd yozma yodgorliklari misolida dalillangan.

## Аннотация

Данная статья посвящена Митре, одному из небесных абстрактных символов зороастрийской теологической системы, и его функциям. Через художественные образы раскрываются качества Митры - могущественного правителя, прекрасного оратора, высокого роста, небесного ученого, обладателя боевого оружия, добродетельного, его способность к чему-либо. В статье научно проанализировано, что зороастрийцы провозгласили существование единого Бога и возложили на Ахура Mazda Митру задачу наказания отступников как хранителя веры и убеждений в то время, когда людям было трудно представить себе все-могущественное божественное абстрактное существо. Митра ведет верующие страны к великим победам. Он переворачивает от счастья страны, не соблюдающие завет, с ног на голову, уничтожает достигнутые ими победы. Митра - имеющая сотней тысяч глаз. Атрибуты Митры, такие как уничтожение ста душ пятьюдесятью ударами, тысяча душ сотней ударами, десять тысяч душ тысячей ударами, бесчисленное количество душ тысячей ударов, уничтожение великанов, которые являются причиной всякой лжи, отрубание предателям, призыв страны на путь истины к славе. Его функции доказаны на примере согдийских письменных памятников конца VII - начала VIII века.

## Abstract

This article is devoted to Mithra, one of the heavenly abstract symbols of the Zoroastrian theological system, and its functions. Through artistic images, the qualities of Mithra are revealed - a powerful ruler, an excellent orator, tall, a heavenly scientist, an owner of military weapons, a virtuous, his ability to do anything. The article scientifically analyzes that the Zoroastrians proclaimed the existence of a single God and entrusted Ahura Mazda Mithra with the task of punishing apostates as the guardian of faith and beliefs at a time when it was difficult for people to imagine an all-powerful divine abstract being. Mithra leads believing countries to great victories. For happiness, he turns countries that do not keep the covenant upside down, destroys the victories they have achieved. Mithra has a hundred thousand eyes. Attributes of Mithra, such as the destruction of a hundred souls with fifty blows, a thousand souls with a hundred blows, ten thousand souls with a thousand blows, countless souls with a thousand blows, the destruction of giants who are the cause of all lies, chopping off traitors, calling the country on the path of truth to glory. Its functions are proved on the example of Sogdian written monuments of the end of the 7th - beginning of the 8th century.

**Kalit so'zlar:** Zardushtiylik, Avesto, Mitra, Xvarxished, bronza, temir, so'g'd, Devashtich, Axriman, Aeshma.

**Ключевые слова:** зороастризм, Авеста, Митра, Хвархешед, бронза, железо, согдийский, Деваштич, Ахриман, Аэшма.

**Key words:** Zoroastrianism, Avesto, Mithra, Khvarkhished, bronze, iron, sogdian, Devasht, Ahriman, Eshma.

## KIRISH (INTRODUCTION)

Avesto ilohiyot tizimi o'zining mifologik asoslari bilan bir qatorda ibtidoiy tabiat falsafasi - naturfilosofiya g'oyalarini ham aks ettiradi. Mitra, Varaxran, Ashi singari ma'budlar tizimi samoviy mavhum timsollar sifatida tasavvur etilsa, Apamnamat, Xvarxshet, Moh singari mabudlar-biri suv, ikkinchisi samoviy real quyosh timsoli, uchinchisi esa oyni ulug'lashni bildiradi va tabiat unsurlari oldida, inson tafakkurining e'zosi orqali shakllangan ilohiy tushunchalarni ifodalaydi. Shu

## ILMIY AXBOROT

munosabat bilan mazkur ilohiylashgan tabiat kultlari zardushtiylik diniy-dunyoqarashidan o'rin olgan. Avestoshunoslikda ushbu tizimning mohiyatiga alohida e'tibor berib kelingan. Xususan, mazkur ilohiy ma'bud zotlarga ma'lum ijtimoiy vazifalar ham yuklangan [2.71]. Zardushtiylikda ma'bud Mitra (Mehr) – Ahura-Mazda yaratgan ezgu borliqning himoyachisi, xudo oldida imonli insonning ahdu paymoni ijrosi ustidan nozir. Bu tushuncha kundalik hayotda oddiy bitim, shartnomalarga nisbatan ham amal qilib kelgan.

Avestoda ma'budlar jinlarga ajratilishining tarixiy ildizlarini uzoq o'tmishdan, aniqrog'i, ibtidoiy davrlardan izlash to'g'ri bo'ladi. Xuddi shu asosda Avesto ilohiyot tizimining keyingi pog'onasini Ahura Mazda yaratgan ma'bud zotlar - yazadlar tashkil etgan. Ularning ijtimoiy hayotga xos taqsimoti asotirlarni diniy tasavvurlar doirasiga olib kirilishi tufayli ro'y bergan. Masalan, Mitra-qudratli erkak zot. Uning qo'lida yovuz kuchlarga dahshat soluvchi gurzi. Bir zarbada o'n zarba kuchi, o'n zarbada yuz zarba, yuz zarbada ming, mingda-tuman va son-sanoqsiz zarba kuchi bor. Yovuz durug'bandlarning, ya'ni Zardusht dini dushmanlarining boshlarini birda o'n, o'nda yuz, yuzda ming, mingda tuman zarb bilan uchiradi. Mitraning ko'zlari minglab, u hamma narsani ko'rguvchi, quloqlari shu qadar tiyrakki, barcha narsani eshitguvchi, u borliq ezgu dunyoning qo'riqchisi. Mitraning yaylovlari keng, cheku chegarasi yo'q, yetti iqlimga yoyilgan. Atrofi 2244 tog' bilan o'ralgan ilohiy yaralmish bezavol yurti u yovuz kuchlardan himoya qiladi [12.19].

Mir atamasining tarixi o'lkamizda uzoq o'tmishga ega bo'lgan, ajdodlarimizning qadimiy zardushtiylik ma'naviy-madaniy dunyosi bilan bog'lanadi. Mir-atamasining etimologik ildizi diniy, axloqiy, falsafiy ta'limot zardushtiylikning asosiy manbai Avestoda ezgu borliqni yaratgan deb hisoblanmish oliy parvardigor zot Ahura Mazdaning eng yaqin yordamchisi, ma'bud Mitraning nomiga borib taqaladi. Bu so'z o'rtasidagi -t- tovushi tish oralig'ida sirg'aluvchi talaffuzga ega bolgan, ya'ni *miθra* (mithra). Bunda qadimgi eroniy portlovchi -t-ning qator eroniy tillarda sirg'aluvchi xususiyat paydo qilish qonuniyati amal qilgan. Avesto kitobida Mitra ma'budi Ahura Mazda yaratgan yazatlarning eng qudratli va serqirra vazifador qilib ta'riflangan. Bu ulug' zot zardushtiylik hali diniy dunyoqarash tizimi bo'lib shakllanmasdan avval ham e'zozlangan va Ardivi Sura, Varaxran, Tishtirya kabi ibtidoiy ma'budlar orasida nufuzi juda baland tutilganini ko'rish mumkin [2.47].

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (MATERIALS AND METHODS)

Avesto mifologiyasida kosmogonik borliq haqidagi tasavvurlar o'rin olgan. Avesto mifologiyasi qatlamlari zardushtiylik ilohiyot tizimining ahuralar (sharaflashga loyiq samoviy-ruhiy zotlar) va yazadlar (ibodat bag'ishlashga sazovor zotlar)dan iborat guruhlarini qanday talqin etish va din amaliyotida hamda ijtimoiy-axloqiy munosabatlar doirasida ularning o'rni belgilangan [8.8.]. Mavzuga doir fikrlar T.Axelis asarlarida ko'rsatib o'tilgan[5.7]. Shuningdek, B.G'.G'ofurov [7. 475], I.G.Aliyev[4.361], I.M.Dyakonov[8.122-154] tadqiqotlarida Avestodagi miflar (jumladan, Mitra) sinchkovlik bilan o'rganilib, ularning zamini O'rta Osiyo ekanligi asoslangan. Asqar Mahkam ijodiga mansub "Avesto" kitobi [1.384] va Avestoshunos M.M.Ishoqov tarjimasida "Avesto. Yasht kitobi"da [11.57] Mitraga keng sharhlar berilgan. R.Urazova "Zardushtiylikdagi ma'budalarning ijtimoiy-tarixiy mohiyati" [15.146] asarida Mitraning qiyosiy tahliliga to'xtalib o'tgan. Tadqiqotchi Sh.Jo'rayevning "Avestoning Yashtlarida ma'budlar" maqolasida ham Mitra ma'budining tavsiflari berilgan [10.34].

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION)

Mitra haqida gap ketganda ko'pchilik uni "Quyosh xudosi" deyishga moyil. Aslida zardushtiylik Quyoshni ma'bud sifatida ulug'lab, uni Xvarxished (Xurshed) deb atagan. Xurshed sha'niga go'zal bir alqov ham bag'ishlangan. Mitra esa unga bag'ishlangan alqovda ta'kidlanishicha, iymonlilar Ahuraga, Mitraga, so'ngra Oyga, Yulduzlarga, nihoyat, Quyoshga topinganlar.

Ahura va Mitraga  
Bo'lsin bizning e'tiqod  
Bunda abad ulug'vor  
Xudolar bo'lsinlar shod  
Oy-yulduzga ibodat  
Ham quyoshga e'tiqod  
Barcha ellar sultoni  
Qodir Mitraga bizning  
Topinch-u namozimiz

Barsman-la e'zozimiz [2.126].

Parchadan ko'rinadiki, zardushtiyar Mitra bilan Quyoshni bir narsa deb hisoblashmagan. Yana bir o'rinda, Mitra Xarappi tog'i uzra o'lmas Quyosh bilan yuzma-yuz turgan holda tasvirlanadi:

Eng birinchi osmoniy  
Ma'budlarning safida  
Xarappi cho'qqisida  
O'lmas Quyosh oldida  
Nurga cho'mib balqiydi  
Rangin, muzayyan Mitra  
Eronu-Turon yurtin  
Ko'rar u cho'qqi uzra [2.126]

Mitranning ma'bud sifatidagi vazifalari xilma-xil va murakkab manzarani tasvirlaydi. Avvalo, Mitra Ahura Mazdaga imon-u, e'tiqodning qo'riqchisi. Bu funktsiya imonli insonning imon ahdidan qaytishini jazolash bilan bog'liq. Avestoda odamning iymonga kelishi xudo bilan bitim tuzishdek, ahdlashish va so'z berishdek tasvirlanadi.

Bitimga sodiq bo'lgin  
Kimgaki so'z bermagin  
Kazzobmi yoki qallob  
Haqgo'ymi yo imonli  
Ahdiga mahkammi yo -  
Kimga so'z bersang agar  
Va'dangni doim bajar  
Chunki bitim o'rtada-  
Qallobu haqgo'y tengdir [2.126].

Bu parchada Mitranning ahdu paymon, imon-e'tiqod ustidan nazorati ilohiy, samoviy ma'no darajasidan kundalik ijtimoiy munosabatlar doirasigacha tushgandek ko'rinadi. Chindan ham qadimiy tasavvurlarga ko'ra ma'bud Mitra ahdlashuvchi tomonlarining ilohiy guvohi, ahдини buzuvchilarning hakami hisoblangan. Buning yaqqol misolini VII asr oxiri - VIII asr boshiga oid sug'd tilidagi bir hujjatda ko'ramiz, unda qayd etilgan bitim Panch (Panjikent) hokimi Devashtich bilan Mohyon ismli kishi o'rtasida tuzilgan. Bitimga ko'ra Mohyon Devashtichdan 3 ta tegirmonni bir yilga ijaraga oladi. Kelishilgan ijara haqini un shaklida to'lash sharti ma'bud Mitra guvohligida imzolangan, shartga xiyonat bo'lgan taqdirda Mitra aybdorni jazolajagi tasvirlanadi [14.22-26].

Mitra Yashtida uning ahдини buzuvchilarga nisbatan jazo choralari va usullari turli shakllarda keladi. Masalan, Mitra - qudratli hukmdor, go'zal notiq, qomati tik, bo'ydor, osmoniy bilimdon, xudo so'zini qalbiga joylagan, qudratli, jangovor, savobordor va qodir. U barcha yolg'onlarning sababchisi devlarning boshiga qiron soladi. Bitim xoinlarining boshlarini yanchadi. Haq yo'lidagi yurti ulug'likka eltadi. Imonli mamlakatni ulkan zafarlarga yo'llaydi. Ahdida turmas yurtlarni yuzini baxtdan teskari qiladi, erishgan zafarlarini to'zdiradi. Mitra yuz ming tuman ko'zli zotdir. U barchaning ezgu ishlarini ham yovuzliklarini ham ko'rib turadi. Ayniqsa u yolg'onni bir zumda fosh etadi [2.216]:

Mitraga topinurmiz  
Yaylovlari keng zotga  
Aldovlari uchmasga  
Yolg'onlarga yurmasga  
Yolg'onni jazolash funksiyasi bir lavhada:  
Agar u yda uy begi  
Urug'da urug' boshi  
Qabilada yo'l boshchi  
Mamlakatda hukmdor  
Bo'lsa kazzob yolg'onchi  
Mitra aylagay vayron  
Jahdu g'azabga minib  
Uyin ham, urug'in ham  
Xonadon-u qishlog'in  
Uy xo'jasin o'ldirar.  
Mahv etar urug' boshin

## ILMIY AXBOROT

Yittirar dohiylarin  
Yurt hokimlarin yiqar  
Mulk shohlarin o'ldirar [2.216].

Mitra Yashtning 23-bandida Mitraga topinish, sig'inish kulfat-balolardan asraydi, yolg'ondan himoya qiladi, deyiladi. So'ngra shu fikr davomida duo so'zi keladi.

Seni aldamaaslarni-  
Bizni balodan asra  
Jafodan saqla, Mitra!  
Mitraga yolg'on, aldov bilan imon hiyonatiga kirganlar, chin so'zga shirk keltirilganlar -  
Jazoga muhtalodir  
Bitim xoinlarining  
Boshi uzra balodir  
Tayin bo'lib qazosi  
Mitra berar jazosin.  
Tutmas bo'lib oyog'in  
Eshitmaydi qulog'in [2.216].

Agar iymonli inson Mitraning mehriqiga sazovor bo'lsa, unga uchqir nayza sanchilmaydi, uzoqdan ham, yaqindan ham o'q tegmaydi. Mitra agar qo'llab tursa, Mitra har narsadan vofiq, ming tuman ko'zlari bor, aldovlarga uchmaydi [2.51] va h.k.

Mitraning jazolovchilik vazifasi keng qamrovli. Masalan, kazzob yolg'onchilarga u dahshat soladi. So'zin oqlamaslarning boshlarini har yoqqa otadi, ularning xonasini vayron etadi. Taqvodorlarni o'ldirgan yolg'onchini xor-zor etadi. Mollarini va uning o'zini chang-to'zonli yo'ldan haydab olib ketadi. Yolg'onchi zot otgan o'q tegsa ham yarador qilolmaydi, nayzalari uchmaydi, sopqonlaridan toshlar ham otilmaydi. Tig'lari yov boshiga ham urilsa ham kesmaydi, jang boltasini chapdastlik bilan ursa ham zarbi xato ketadi. Mitraning jangovorlik, yov bilan kurashib haqiqatni, imonni qo'riqlash funksiyasi, Mitra Yashtning bir necha o'rnida go'zal bir tarzda madh etiladi .

Dushman saflarini oralab, so'zga xoin odamlarning qo'llarini orqadan tutadi, quloqlarini eshitmas qiladi, oyoqlarini shol qiladi, zarblarining kuchini qirqadi, yolg'onning dunyosini ana shunday jazolaydi.

Mitra Yashtning o'n uchinchi porasida, Mitra o'zining sha'niga takbir aytib sig'inganlarga beradigan mukofotlarini va'da qiladi:

Barcha hilqat panohi  
Men Mitra savobkorman.  
Asraguvchi borliqni  
Men Mitra savobdorman  
Meni duo takbirla  
Nomimni kim zikr etsa  
Sha'nimni e'zoz etsa  
Men samodan tushardim  
Odamlarning umriga  
O'lmas umr ko'shardim[2.54].

Odamlarning ibodati, ixlosu e'tiqodi evaziga Mitra yer-suv, podalar baxshida etadi, xonadonlarida o'g'illarini ko'paytiradi.

Mitra Yashtning XIX bobida ma'bud yana zorlanib, kim unga namoz yo'llaydi qabilida murojaat etadi. Buning evaziga berilgan ajr va'dasi avvalgilardan jiddiyroq. Jumladan, yovlararo yovlikni bartaraf etish, ezgulikni barbod qiluvchiga qiron solish, otlari Xush atvor, aravasi purviroq, kim yordamga chorlasa ezgulik yo'lida doim yordamga tayyor yurtlarni qo'riqlaydi, rostgo'yo xaqqarastlarga tayanch, solih farzandlar ato aylaydi, har ishda g'oliblikka erishtiradi. Mahshar kuni riyokor, yolg'onchilarni xarob qiladi, gunohkorlarni to'p-to'p qilib yo'q qiladi. Mitraning jangovorligini uning qo'lidagi jang qurollari ta'rifi bilan kuchaytirilgan. Masalan, Mitraning yuz tig'li boltasi bor. Bir zarbda yuz zarb shundan, bu bolta sariq ma'dandan kuyilib, sirtiga oltin suvi berilgan muzaffar quroldir. Undan Axriman titroqqa tushadi, g'azab devi Aeshma dahshatga tushadi, osiy qasamxo'rlar boshiga o'lim yetishadi.

Mitraning barcha sifatu xislatlarini Ahura Mazda bergani a'lohida ta'kidlanadi. Mitraga parvardigor ming yuz tuman ko'z berdi, bu dinni unga ma'qul qildi. Muqaddas uy-Vahu Managa

amr etib, o'Imas bag'ri butunlik -ya'ni Xaurvatat (Xurdod) farishtasi yordamida Ahura Mazda ezgu din himoyasini Mitraga topshirdi:

Mitraga ul yaratgan

Ul mehribon Ahura Mazda

Yer yuzida ustivor

Hokimlik xukmin berdi.

Shu o'rinda Ahura Mazda Mitraning bir sifatini alohida ta'kidlaydi: "... o'Imas valiylar seni hokimu - hakim derlar, sen dinni poklaguvchi bo'lasan" va h.k.

O'Imas valiylar - bu Ahura Mazdaning olti emanasiyasi, ya'ni uning irodasini ro'yobga chiqaruvchi muakkillari Arta Vahishta, Vahu Mana, Spenta Armaitiy, Xshastra Variya, Xaurvatat, Ameretotlardir [15.37-46]. Bular zardushtiylik an'anasiga ko'ra diniy ilohiy tizimning Ahura Mazdadan keyin turuvchi oltita oliy farishtalaridir. Mitraning ulardan ustun qo'yilishi shu munosabat bilan izoh talab qiladi: gap shundaki, Mitra o'zining funksiyasini, xususiyati bilan zardushtiylik rasman hali shakllanmasdan avval eng muhim ma'bud hisoblangan. Zardusht Ahura Mazdani yagona parvardigor deb e'lon qilganidek odamlar hamma narsaga qodir ilohiy mavhum zotni tasavvur qilishlari qiyin bo'lgan. Aftidan, Zardusht o'zining payg'ambarlik vazifasini ado etishda odamlarning an'anaviy ko'pxudolik tasavvurlarini yengishi qiyin kechgan. Vaziyatdan chiqishning yo'li birgina edi. Bu ham bo'lsa, Ahura Mazdaga yuklangan yakkalikni har narsaga, butun ezgu borliqni yaratishdan tartib, hatto, ma'budlarni ham yaratishga qodirlik xislati bilan "siylagan" ya'ni, endi, odamlarga Zardusht targ'ib qilayotgan oliy xudo ular bilgan xudolarni ham yaratgan deb ko'rsatildi. Bu aslida zardushtiylikning bosh g'oyasi va haqiqatga zid bo'lsa-da, amalda yangi tug'ilgan dinning barqaror yashab qolishiga imkon bergan. Shu sababli Mitra Yashtida birinchi band:

Men Mitrani o'zimdek

Alqovu namozlarga

Loyiq qilib yaratdim...[2.47]

Mitra Yashti bir qator nashrlarda "Mehr Yasht" deb ham ataladi. Bu atamaning ma'nosini ma'budning bitimlar noziri kabi vazifasi orqali izohlash mumkin. Mitra so'zining tarixan Avestocha talaffuzi misr (qalin til oldi S bilan) bo'lgan. Bu tovush keyingi taraqqiyotda th (inglizcha) holatdan chuqur til orqa H tomon siljigan. Nihoyat, so'zning bugungi tilimizda saqlangan shakli muhr bo'lib, xujjatlarning tasdiqlash ashyosining nomidir. Bu talqinning isboti uchun yana qadimiy so'g'd tiliga murojaat etamiz. Mug' tog'i so'g'd hujjatlaridan birida "Bu hujjat... yozildi va unga loy muhr bosildi" degan jumla uchraydi. Sug'dchada bu birikma "g'iroy misr" tarzida yozilgan.

V-8 raqamli hujjatda shu kabi loy muhr saqlangan. U qizil tuproqdan qorilgan loydan yasalgan. To'g'rirog'i, xujjat yozilgach, naycha qilib o'ralgan va tizimcha bilan belidan bog'lanib, tizimcha o'ramiga qizil loy yopishtirilgan. Hali loy qurimay turib unga muhr izi tushirilgan. Shu usul bilan hujjatlarning saqlanishi va egasiga yetib borishi va ishonchliliigi ta'minlangan. Shunday qilib, muhr so'zida Mitraning bitimlarni nazorat qilish bilan bog'liq vazifasi hozir ham amalda asl ma'nosidan uzoqlashmagan[15.146].

## XULOSA

1. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, "Goh"lardan boshlangan ma'budlarning jinslarga ajratilish modeli "Kenja Avesto"da yazadlarga nisbatan amal qilgan. Ularning bir turkumi o'zining vazifalariga ko'ra ayol ma'budalar deb, e'zozlansa, boshqa turkumi esa erkak ma'budlar hisoblangan. Erkak ma'budlar qudratli, jangovor, chaqqon, uddaburon, jasur, yengilmas tarzda tasvirlansa, ma'budalar nazokatli, sezgir, go'zal, xushqomat, mehribon, ezgu niyat va amallarga ko'makchi kabi sifatlar bilan siylangan. Bundan tashqari, erkaklik martabasidagi ma'budlar samo bo'ylab, olam bo'ylab himoyat, yovuzliklar bilan abadiy jang holatida tasvirlangan.

2. Mitra Yashtining asosiy g'oyaviy motivi "**Yolg'on**" - Avestocha drauga (fors-tojik tilida durug')ga qarshi haqiqat (Avestocha Arta)ni himoya qilishdan iborat. Bu o'rinda "**Yolg'on**" tushunchasi keng ma'noda yovuzliklarning umumlashmasi deb qaraladi. Insoniyat tarixida ilohiy haqiqat tushunchasini hamda ilohning o'zini ham Haq-haqiqat deb umumlashtirish darajasiga ajdodlarimiz II ming yillik I ming yillik boshlaridayoq erishganlar. Shu asosda zardushtiylik dunyoqarash tizimining ma'naviy asosi yuzaga kelgan. Bu esa ezgulik-haqiqat, yovuzlik esa "**Yolg'on**" deb umumlashtirishda o'z ifodasini topgan.

3. Mitra Yashtida “*Topinurmiz Mitraga*” deb boshlanuvchi bandlar ko‘p. Ulardan oldin “kim Mitraga topinsa” tarzidagi da‘vat so‘zlari keladi. Lekin Yashtning o‘rtalarida birdan Mitraning o‘zi “Kim menga namoz yo‘llasa, Men unga ajru mukofotlar bag‘ishlayman” kabi murojaatlar uchraydi.

Ayni shu manzara Mitra Yashtining ko‘p qatlamli ekanidan dalolatdir. Qatlamlarning matnga birlashtirish jarayonida ichki xronologik tartib ketma-ketligiga rioya qilinmagan.

4. Mitra Yashti tarkibida asotiriy hamda real tarixiy unsurlari aralash holda mujassamdir. Samo bo‘ylab uchib, atrofida Varaxran, Ashi, Aruvi, Tishtriya va boshqa ma‘budlar bilan birga muqaddas yerni qo‘riqlash manzaralari, Xaratti tog‘ining osmono‘par cho‘qqisidan turib butun borliqni ko‘rib turish kabi lavhalar “ming ko‘zli, ming quloqni” kabi sifatlar mifologik (asotiriy) bo‘lsa, Mitraning jangovor qurollari-sariq ma‘dandan boltasi, qirrali uchqur gurzisi, uzun nayzasi – bular bronza va ilk temir davri bilan, ya‘ni mil.avv II - I ming yillik boshlariga oiddir. Demak Mitra Yashtining Avestoga kiritilgan va qoim qilingan matnlari bronza asri va temir asrining boshlariga mansubdir.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. / Asqar Mahkam tarjimai. – T.: Sharq, 2001. - 384 b. (Avesto. A Historical and Literary Monument. / Translation by Askar Mahkam. – T.: Sharq, 2001. - 384 s.)
2. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. / Asqar Mahkam tarjimai. – T.: Sharq, 2001. - 384 b. (Avesto. A Historical and Literary Monument. / Translation by Askar Mahkam. – T.: Sharq, 2001. - 384 s.)
3. Avesto. Yasht kitobi. M.Ishoqov tarjimai. – T.: Sharq, 2001. – B.20. (Avesto. The Book of Youth. Translation by M. Iskhakov. - T.: Shark, 2001. – S.20.)
4. Aliyev I. Istoriya Midii. – Baku: Izd. AN. Azerb.SSR, 1960. - 361 s. (Aliyev I. History of Midia – Baku: Publishing house of the Academy of Sciences. Azerbaijan SSR, 1960. - 361 s.)
4. Boys M. Zoroastrisы. Verovaniya i obychai. – M.: Nauka, 1988. – S.7. (Boyce M. Zoroastrians. Beliefs and customs. – Moscow: Nauka, 1988. – S.7.)
5. Vasilyev L.S. Istoriya religiy Vostoka. – M.: Knij. dom. Universitet, 1999. - 432 s. (Vasilyev L.S. History of the Religious East. – Moscow: University Book House, 1999. - 432 s.)
6. Gafurov B.G. Istoriya tadjikskogo naroda. T.I. – M.: Polit. lit., 1949. - 475 s. (Gafurov B.G. History of the Tajik people. T.I. – M.: Polit.lit., 1949. - 475 s.)
7. Dyakonov M.M. Vostochnyy Iran do Kira. // Istoriya iranskogo gosudarstva i kultury. – M.: GRVL., 1971. – S.122-154. (Diakonov M.M. East Iran up to Cyrus. // History of the Iranian state and culture. – M.: HRVL. 1971. – S.122-154.)
8. Jabborov I. Antik madaniyat va ma‘naviyat xazinasi. – T., 2000. – B.8. (Jabbarov I. The treasures of ancient culture and spirituality. – T., 2000. – S.8.)
9. Jo‘rayev Sh. Avestoning Yashtlarida ma‘budlar. – T.: TDSHI, 2009.- 34 b. (Juraev Sh. Gods in the Yashts of Avesto. - T: TDSHI, 2009. - 34 s.)
10. Is‘hoqov M.M. Unutilgan podsholiklardan xatlar. – T.: Fan,1992. -57 . (M.M. Iskhakov. Letters from the Forgotten Kingdoms. - T.: Nauka, 1992. -57.)
11. Is‘hoqov M. Davlatchilik tariximizning ma‘naviy asoslari. // Ta‘lim muammolari, 2006. - №1. – B.19. (M.M. Iskhakov. Spiritual foundations of our history of statehood. // Educational problems, 2006. - №1. – S.19.)
12. Steblin - Kamenskiy M.I. Mif. – M.:Nauka, 1964. - 147 s. (Steblyn - Kamensky M.I. Myth. - M.: Nauka, 1964. - 147 s.)
13. Sogdiyskiye dokumenty s gory Mug. Вып. II. Yuridicheskiye dokumenty i pisma. Chteniye, perevod i kommentarii V.A.Livshisa. – M.: 1962. – S. 22-26. (Sogdian documents from Gori Mug. Vol. II. Legal documents and letters. Reading, translation and comments by V. A. Livshits. A. Livshits. – M.: 1962. - S. 22-26.)
14. Urazova R.T. Zardushtiylikdagi ma‘budalarning tarixiy-ijtimoiy tahlili. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. - 146 b. (Urazova R.T. Socio-historical analysis of goddesses in Zoroastrianism. – T.: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2013. - 146 s.)
15. Urazova R. Ameshaspentals meshaspentals und ihre funktionsanalyse in Avesto Asha-Vahishta und Vahu-Mana. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866. Vol.2 Issue 1.7. – P.37-46.